




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023- YIL YANVAR-MAY
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 79-223-33-29
www.navstat.uz

Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 39 044,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 103,5 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 058,1 mlrd so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,9 % ga to‘g‘ri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan – bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31 416,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,5 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2022- yilning yanvar-may oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,4 % (9,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 82,9 % (84,0 %) va quiyi texnologiyalisi – 7,6 % (5,9 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2023- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 3 195,7 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 132,7 % ga o'sgan), 1 082,0 tonna xlor (163,7 %), 1 216,3 ming tonna portlandsement (107,3 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Tvorog va tворогдан mahsulotlar, tonna.	21,7	36,8	15,1
Fosfinatlar, fosfonatlar fosfatlar va polifosfatlar, ming tonna.	207,7	215,1	7,4
Xlor, tonna.	661,0	1 082,0	421,0
Yogurt , tonna.	2,2	2,4	0,2
Metanal (formaldegid), tonna.	270,0	343,0	73,0
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming t.	20,1	19,9	-0,2
Suvviz ammiak, ming t.	329,1	265,8	-63,3
Vodorod xlorid (xlorid kislota), ming t.	24,2	24,8	0,6
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming t.	25,4	23,5	-1,9
Portlandsement, ming tonna.	1 133,1	1 216,3	83,2
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	2 407,7	3 195,7	788,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Uglerod dioksidi ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-may oylarida)

Uglerod dioksidi – gazsimon uglerod dioksid suyuqligidan tashkil topgan (karbonat angidrid, karbon dioksid) bo'lib, ammiak chiqindi gazlar, shuningdek, boshqa yonish mahsulotlar (past harorat suyuqlik, yuqori bosim suyuqlik va gaz) asosida olinadi.

Viloyatimizda 2023- yil yanvar-may oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 3,9 ming tonna uglerod dioksidi ishlab chiqarildi. Uglerod dioksidi ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,6 % ni tashkil etdi.



Vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-may oylarida)

Vodorod xlorid – xlorning eng muhim birikmalaridan biri bo'lib o'tkir hidli rangsiz gaz. U bilan nafas olingenida nafas yo'llarini yallig'lantiradi va bo'g'adi.

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar-may oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 24,8 ming tonna vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni tashkil etgan.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Azot ishlab chiqarish (2023-yilning yanvar-may oylarida)

Azot – rangsiz, hidsiz gaz bo‘lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.


2023-yilning yanvar-may oylarida jami 27,8 ming m³ azot ishlab chiqarildi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ni tashkil etdi.



Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish (2023-yilning yanvar-may oylarida)

Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta’minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo’llanadi.

2023-yilning yanvar-may oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 3 195,7 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 32,7 % ga ko‘paygan.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 75,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,0 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 23 809,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 83,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 238,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 4,7 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 986,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,3 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 81,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 285,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 11,3 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 819,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 102,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 469,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 546,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,5 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 91,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 98,4 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4 931,9	4 486,3	- 445,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 303,8	2 267,0	- 36,8

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,2 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 2,9 m. hamda suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 102,5 % ga oshdi.


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar , mln. so'm	59 303,7	60 807,1	1 503,4
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar,mln. so'm	6 609,9	19 205,3	12 595,4

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 1 510,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,1 %, uning jami sanoatdagi ulushi 3,9 % ga to'g'ri keldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 54,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 45,7 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 41,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 58,1 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 819,5 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 4,8 % ga oshdi.

Shu bilan birga, viloyatda 691,0 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 12,2 % ga oshdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lмаган boshqa maqsadlarda ishlataladigan sanoat mahsulotlari.

1 542,2 mldr. so'm

2021- yil yanvar-may

1 687,0 mldr. so'm

2022- yil yanvar-may

1 510,5 mldr. so'm

2023- yil yanvar-may

2021- yil

104,4 %

2022- yil

106,9 %


2023- yil

108,1 %

Nooziq-ovqat

mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


yanvar-may
mldr. so'm



45,7 %

Jami iste'mol
mollari ishlab
chiqarish hajmida
nooziq-ovqat
mahsulotlarning
ulushi


yanvar-may
o'sish sur'ati



Oziq-ovqat

mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

yanvar-may
mldr. so'm



54,3 %

Jami iste'mol
mollari ishlab
chiqarish hajmida
oziq-ovqat
mahsulotlarining
ulushi

yanvar-may
o'sish sur'ati

